

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

TASDIQLANGAN VA ANALOQ KIRITILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining
2023 yil 7.08.2023 - yil 7.08.2023 - sonli buyrug'ga binoan tasdiqlangan.

JORIY ETILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

60710700 – Elektr texnikasi, elektr mexanikasi va elektr texnologiyalari (elektr mashinasozlik) bakalavriat ta'lim yo'nalishining malaka talablari

Muzkur Malaka talablar "Oliy ta'lim davlat ta'lim standartlari. Asosiy standartlar", "Oliy ta'lim davlat ta'lim standartlari. Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatsiyasi", O'zbekiston Respublikasi Milliy ta'lim standartlari (rankasi), kashiy standartlar va kadrlar tayyorlash uchun ishlab chiqilgan vaqtinchalik yordamchi hujjat sifatida ishlatiladi.

Toshkent – 2023



ISHLAB CHIQLGAN:

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti;
“O‘zbekgidroenergoqurilish” AJ.

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovasiyalar vazirligining
2023 yil « 4 » 03 dagi 344 - sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan.

JORIY ETILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovasiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me‘yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovasiyalar vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

| T/r | bet |
|---|-----|
| 1. 60710700 – <i>Elektr texnikasi, elektr mexanikasi va elektr texnologiyalari (elektr mashinasozlik)</i> bakalavriat ta'lim yo'nalishining umumiy tavsifi | 4 |
| 1.1. Qo'llanish sohasi | 4 |
| 1.1.1. 60710700 – <i>Elektr texnikasi, elektr mexanikasi va elektr texnologiyalari (elektr mashinasozlik)</i> ta'lim yo'nalishi Malaka talabining qo'llanilishi..... | 4 |
| 1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari..... | 4 |
| 1.2. 60710700 – <i>Elektr texnikasi, elektr mexanikasi va elektr texnologiyalari (elektr mashinasozlik)</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi..... | 4 |
| 1.2.1. 60710700 – <i>Elektr texnikasi, elektr mexanikasi va elektr texnologiyalari (elektr mashinasozlik)</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari..... | 4 |
| 1.2.2. 60710700 – <i>Elektr texnikasi, elektr mexanikasi va elektr texnologiyalari (elektr mashinasozlik)</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining ob'yektlari..... | 5 |
| 1.2.3. 60710700 – <i>Elektr texnikasi, elektr mexanikasi va elektr texnologiyalari (elektr mashinasozlik)</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari..... | 5 |
| 1.2.4. 60710700 – <i>Elektr texnikasi, elektr mexanikasi va elektr texnologiyalari (elektr mashinasozlik)</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari..... | 5 |
| 2. 60710700 – <i>Elektr texnikasi, elektr mexanikasi va elektr texnologiyalari (elektr mashinasozlik)</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar..... | 7 |
| 2.1. Umumiy kompetensiyalar..... | 7 |
| 2.2. Kasbiy kompetensiyalar..... | 8 |
| 2.3. Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar..... | 8 |
| 2.3.1. Kvalifikatsiya..... | 10 |
| 2.3.2. 60710700 – <i>Elektr texnikasi, elektr mexanikasi va elektr texnologiyalari (elektr mashinasozlik)</i> ta'lim yo'nalishi uchun ajratilgan o'quv fanlari, bloklar bo'yicha soatlar va kreditlar:..... | 10 |
| 2.3.3. 60710700 – <i>Elektr texnikasi, elektr mexanikasi va elektr texnologiyalari (elektr mashinasozlik)</i> bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha ta'lim dasturining tuzilishi:..... | 11 |
| Bibliografik ma'lumotlar..... | 12 |
| Kelishuv varag'i | 14 |

1. 60710700 – Elektr texnikasi, elektr mexanikasi va elektr texnologiyalari (elektr mashinasozlik) bakalavriat ta'lim yo'nalishining umumiy tavsifi

60710700 – Elektr texnikasi, elektr mexanikasi va elektr texnologiyalari (elektr mashinasozlik) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shakllarida amalga oshiriladi. Barcha ta'lim shakllari bo'yicha o'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta'limda bakalavriat dasturining me'yoriy muddati 4 yil.

1.1. Qo'llanish sohasi.

1.1.1. 60710700 – Elektr texnikasi, elektr mexanikasi va elektr texnologiyalari (elektr mashinasozlik) ta'lim yo'nalishi Malaka talabining qo'llanilishi.

Malaka talabi 60710700 – Elektr texnikasi, elektr mexanikasi va elektr texnologiyalari (elektr mashinasozlik) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim muassasalari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:

- mazkur ta'lim yo'nalish bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim muassasasining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o'qituvchilari;
- ta'lim yo'nalishining o'quv rejasi va fan dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim muassasasining talabalari;
- bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestasiya komissiyalari;
- ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;
- oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;
- oliy ta'lim tizimini akkreditasiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;
- kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;
- oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning otionalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. 60710700 – Elektr texnikasi, elektr mexanikasi va elektr texnologiyalari (elektr mashinasozlik) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tasnifi

1.2.1. 60710700 – Elektr texnikasi, elektr mexanikasi va elektr texnologiyalari (elektr mashinasozlik) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari:

60710700 – Elektr texnikasi, elektr mexanikasi va elektr texnologiyalari (elektr mashinasozlik) – “Muhandislik ishi” ta'lim sohasiga oid yo'nalish bo'lib, u

elektr mashinalari, transformatorlar va elektr apparatlarining ish jarayonlari nazariyasini o'zlashtirish va tadqiqot qilish, ularni ishlab chiqarish, loyihalash, ularga texnik xizmat ko'rsatish va ularni diagnostika qilish, sinash va ekspluatasiya qilishga, soha istiqbolini belgilashga, kasbiy ko'nikma, mutasaddilik qobiliyatiga yo'naltirilgan inson faoliyatining vositalari, usullari, metodlari va uslublarining majmuasini qamrab oladi.

1.2.2. 60710700 – Elektr texnikasi, elektr mexanikasi va elektr texnologiyalari (elektr mashinasozlik) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining ob'yektlari:

- davlat va nodavlat tashkilot, korxonalar va muassasalar, kompaniyalar (firmalar), ishlab chiqarish birlashmalari va boshqalar;

- elektr mashinalar, transformatorlar va elektr apparatlarni ishlab chiqarish, loyihalash, konstruksiyalarini yaratish;

- elektr energiya ishlab chiqarish, uni uzatish va taqsimlash, ulardan foydalanish samaradorligini oshirish, jarayonlarni loyihalash, elektr mashinalari, transformatorlar, elektr apparatlari va generatorlarni ishlatish; generatorlar qo'zg'atish tizimlari va motorlar tezligini o'zgartirish, ishga tushirish jarayoni va boshqa texnologik jarayonlarni boshqarish;

- elektr mashinalari, transformatorlar va elektr apparatlarini ta'mirlash korxonalarining texnologik jarayonlarini sozlash, ishlatish, loyihalash.

- ilmiy va ishlab chiqarish faoliyatini texnikaviy ta'minlash vositalari; kasb-hunar kollejaridagi o'quv-tarbiya jarayoni.

60710700 – Elektr texnikasi, elektr mexanikasi va elektr texnologiyalari (elektr mashinasozlik) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavriyat bitiruvchilari pedagogik qayta tayyorlashdan o'tgandan keyin, professional ta'lim muassasalarida ta'limning vakolatli boshqaruv organlari tomonidan aniqlanadigan umumkasbiy va ixtisoslik fanlarini o'qitish bo'yicha pedagogik faoliyati bilan shug'ullanish huquqiga ega bo'ladi. Bakalavriyatning kasb ta'limi yo'nalishlari bundan mustasno.

1.2.3. 60710700 – Elektr texnikasi, elektr mexanikasi va elektr texnologiyalari (elektr mashinasozlik) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari:

- muhandislik - qidiruv va loyiha-konstruktorlik faoliyati;
- ishlab chiqarish – texnologik faoliyati;
- tashkiliy-boshqaruv faoliyati;
- ilmiy – tadqiqot faoliyati;
- foydalanish-servis faoliyati.

1.2.4. 60710700 – Elektr texnikasi, elektr mexanikasi va elektr texnologiyalari (elektr mashinasozlik) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari.

60710700 – Elektr texnikasi, elektr mexanikasi va elektr texnologiyalari (elektr mashinasozlik) ta'lim yo'nalishi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, ob'yektlari va turlariga muvofiq bakalavriyat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim:

Muhandislik-qidiruv va loyihaviy-konstruktorlik faoliyatida:

- elektr mashinalari va apparatlari qurilmalarini qismlari va detallari va yig'ma birliklarining loyahasini tizimli yondoshuv asosida avtomatlashtirilgan ravishda ishlab chiqish qobiliyatlari;

- bajarilayotgan tajriba-konstruktorlik va amaliy ishlar mavzusi bo'yicha matematik, informasion va imitasion modellarni ishlab chiqish va tadqiqot qilish;

- loyihaviy va dasturiy hujjatlarni ishlab chiqish;

- elektr mashinalari va apparatlari qurilmalarini ishchi parametrlarini aniqlash bo'yicha sinovlarni o'tkazish qobiliyati;

- amaliyotda axborot texnologiyalarining xalqaro va kasbiy standartlarini, zamonaviy paradigma va metodologiyalarni, instrumental va hisoblash vositalarini tayyorgarlik ixtisosligiga mos ravishda qo'llash qobiliyatlarini o'zlashtirish.

Ishlab chiqarish-texnologik faoliyatida:

- muhandislik ishi jabhasidagi ob'yektlar, jarayonlar, tizimlar, jihozlar va texnik vositalardan samarali foydalanish;

- tizimlar, texnologik jarayonlar, ularning elementlari va texnologik hujjatlarni ishlab chiqishda ijrochilar jamoasi tarkibida ishtirok etish;

- ob'yektlar, jarayonlar, tizimlar, jihozlar va texnik vositalarning ekspluatasiya xavfsizligini ta'minlash;

- ishlab chiqarishni tashkil etish va takomillashtirish bo'yicha texnologik yechimlarni ishlab chiqish;

- texnikaviy-iqtisodiy tahlil qilish;

- ishlab chiqarishni tashkil etishning samarali usullarini tanlash va qo'llash;

- kasbiy etika qoidalariga rioya qilish.

Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:

- fuqarolik jamiyatining dolzarb masalalarini bilishi, O'zbekiston rivojlantirish strategiyasiga asoslangan faol hayotiy nuqtai nazarga ega bo'lishi;

- dunyoqarash bilan bog'liq falsafiy bilimlarga tizimli ega bo'lishi, mustaqil tahlil qila olishi, kasbiy faoliyatida ularni hisobga olib bilishi;

- Vatan tarixini bilishi, ma'naviy milliy va umuminsoniy qadriyatlar masalalari yuzasidan o'z fikrini bayon qila olishi va ilmiy asoslay bilishi, milliy istiqloq g'oyasiga asoslangan faol hayotiy nuqtai nazarga ega bo'lishi;

- xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, tabiiy ilmiy fanlar bo'yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo'lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda hayotda va o'z kasb faoliyatida foydalana bilishi;

- axborot yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, o'z kasbiy faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olishi;

- tegishli bakalavriat yo'nalishi bo'yicha raqobotbardosh umumkasbiy tayyorgarlikka ega bo'lishi;

- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olishi;

- sohaga oid innovasiyalarni amaliyotga tatbiq qilishni tashkil etish;

- ijrochilar jamoasi ishini tashkil qilish;
- fikrlar har xil bo'lgan sharoitda boshqaruv qarorini qabul qilish;
- nazorat qilish va amalga oshirilgan ishlarning natijalarini baholash;
- bajarayotgan faoliyati bo'yicha ish rejasini tuzish, nazorat qilish va amalga oshirilgan ishning natijalarini baholash;
- pullik ta'lim xizmatlarini tashkil etish va amalga oshirish;
- ixtisoslikka mos mavzu bo'yicha turli xizmatlarni ko'rsatish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim.

Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:

- zamonaviy metodlar va vositalardan foydalanib faoliyat ob'yektlari holatini tahlil qilishda ishtirok etish;
- muhandislik ishi sohasidagi ob'yektlar, jarayonlar, tizimlar, jihozlar va texnik vositalarni loyihalash, ishlab chiqish, sinash va ulardan samarali foydalanishda ishtirok etish;
- samarasiz vaqt, mehnat va moddiy resurslarni kamaytirish, rasional texnologik jarayonlarni tanlash bo'yicha tadqiqotlarni o'tkazishda qatnashish;
- muhandislik ishi ta'lim sohasidagi maxsus adabiyotlar, ilmiy-texnikaviy ma'lumotlar, chet elda va respublikamizda erishilayotgan fan va texnika sohasidagi axborotlarning ilmiy manbalarini o'rganish;
- tahlil, hisobotlar va ilmiy publikasiyalarni tuzish uchun ma'lumotlarni tayyorlash;
- mavzu (topshiriq) bo'yicha ilmiy-texnikaviy ma'lumotlarni yig'ish, ishlov berish, tahlil qilish va olingan ma'lumotlarni tizimlashtirishda ishtirok etish;
- ilmiy-tadqiqot natijalarini va ishlanmalarni amaliyotga tatbiq etishda qatnashish.

Foydalanish-servis faoliyatida:

- muhandislik ishi ta'lim sohasiga tegishli ob'yektlar, jarayonlar, tizimlar, jihozlar va texnik vositalarni sinash, texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash ishlarini tashkil etish;
- muhandislik ishi ta'lim sohasiga tegishli ob'yektlar, jarayonlar, tizimlar, jihozlar va texnik vositalariga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash bo'yicha namunaviy texnologik jarayonlarini ishlab chiqish va qo'llash.

2. 60710700 – Elektr texnikasi, elektr mexanikasi va elektr texnologiyalari (elektr mashinasozlik) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar

2.1. Umumiy kompetensiyalar:

- davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish;
- mantiqiy fikrlashlarni rivojlantirish, to'g'ri xulosa chiqarish, matematik madaniyatni shakllantirish;
- xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, tabiiy ilmiy fanlar bo'yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga

ega bo'lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilish;

- axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatida qo'llay bilishi, axborotlarni yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olish;

- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;

- sog'lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to'g'risida tassavvurga ega bo'lish.

2.2. Kasbiy kompetensiyalar:

- me'yoriy-huquqiy hujjatlarni izlash, tahlil qilish va ulardan kasbiy faoliyatida foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lish;

- elektr mashinalari va apparatlari qurilmalarini qismlari va detallari va yig'ma birliklarining loyihasini tizimli yondoshuv asosida avtomatlashtirilgan ravishda ishlab chiqish ko'nikmalariga ega bo'lish;

- bajarilayotgan tajriba-konstruktorlik va amaliy ishlar mavzusi bo'yicha matematik, informasion va imitasion modellarni ishlab chiqish va tadqiqot qilishni bilish;

- loyihaviy va dasturiy hujjatlarni ishlab chiqish ko'nikmalariga ega bo'lish;

- elektr mashinalari va apparatlari qurilmalarini ishchi parametrlarini aniqlash bo'yicha sinovlarni o'tkazish ko'nikmalariga ega bo'lish;

- amaliyotda axborot texnologiyalarining xalqaro va kasbiy standartlarini, zamonaviy paradigma va metodologiyalarni, instrumental va hisoblash vositalarini tayyorgarlik ixtisosligiga mos ravishda qo'llash qobiliyatlarini o'zlashtirishni bilish;

- elektr mashinalari va apparatlari tizimi jarayonlarini bajarish, maromiga yetkazish va o'zlashtirish ko'nikmalariga ega bo'lish;

- iste'molchilarning elektr mashinalari va apparatlarini loyihalashtirishda texnologik intizomga rioya qilinishini nazorat qilishni bilish;

- kasbiy etika kodeksiga rioya qilish ko'nikmalariga ega bo'lish;

- elektr mashinalari va apparatlari tizimida energiya resurslaridan oqilona foydalanish bo'yicha tadbirlarni ishlab chiqish va tatbiq qilishni bilish;

- elektr mashinalari va apparatlari *elektr ta'minoti* tizimida iste'molchilar uzluksizligini ta'minlash uchun zarur bo'lgan resurslarni rejalashtirish ko'nikmalariga ega bo'lish;

- elektroenergetika sohasidagi maxsus adabiyotlar, ilmiy texnikaviy ma'lumotlar, chet elda va respublikamizda erishilayotgan fan va texnika sohasidagi yutuqlarni o'rganish ko'nikmalariga ega bo'lish;

- elektroenergetika tizimlari va jihozlarini montaj qilish, sozlash, sinash va foydalanishga topshirish qoidalari va texnologiyasini bilish;

- elektr mashinalari va apparatlari qurilmalar jihozlarini, konstruksiyalar va asbob-uskunalarining texnik holatini tekshirish va qoldiq resursini baholash ko'nikmalariga ega bo'lish.

2.3. Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar

Bakalavriat ta'lim yo'nalishi o'quv rejasi kredit-modul tizimi asosida

shakllantiriladi va kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablarga muvofiq, talabalar **majburiy va tanlov** fanlarini o'zlashtirishi, amaliyotlarni o'tishi va natijada kasbiy faoliyatida zarur bilim, ko'nikma va malaka kompetensiyalarini egallashini ta'minlovchi mazmunda ishlab chiqiladi.

A. Majburiy fanlar

Mantiqiy davomli fanlar – mantiqiy ketma-ketlikda bir-birini to'ldiruvchi fanlar jamlamasi. Bunda oldin keladigan fan bo'yicha talabaning kredit ololmasligi, keyingi mantiqiy davomi bo'lgan fan bo'yicha talabaning mashg'ulotlarga kiritilmasligiga olib kelishi mumkin.

Alohida fanlar – kasbiy kompetensiyalarni yakka holda shakllantirishga xizmat qiladigan davomli bo'lmagan fanlar. Bunda mazkur fanlar bo'yicha talaba kredit ololmaganiga GPA bo'yicha o'zlashtirish ballari yetarli bo'lsa, keyingi bosqichda boshqa fanlar bo'yicha talabaning mashg'ulotlarni davom ettirish imkonini beradi.

B. Tanlov fanlar

Chuqur ixtisoslashuv tanlov fanlari – ixtisoslashuvdan kelib chiqib, chuqurlashtirilgan fanlar bo'yicha qo'shimcha bilim berishga va bevosita ixtisosligi uchun zarur kompetensiyalarni kengaytirishga xizmat qiladigan fanlar jamlamasi. Ushbu fanlarga jami tanlov fanlariga ajratilgan soatlarning 80 % dan kam bo'lmagan qismi taqsimlanishi mumkin.

Shaxsiy qiziqishga qaratilgan fanlar – talabaning tanlagan ta'lim yo'nalishidan qat'iy nazar, shaxsiy qiziqishlari, ijodiy yondashuvlari va iqtidorini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan fanlar. Ushbu fanlarga jami tanlov fanlariga ajratilgan soatlarning 20 % dan ko'p bo'lmagan qismi taqsimlanishi mumkin.

Ta'lim oluvchilar qo'shimcha chuqur nazariy va amaliy bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishini, innovasion usullar va sohaning hududiy omillarini hisobga olgan holda kasbiy kompetensiyalari kengaytirishga xizmat qiluvchi fanlar majmuasidan iborat bo'lib, har bir tanlov fanlar jamlamasiga uchtadan kam bo'lmagan o'rnini bosuvchi fanlar kiritilishi mumkin. O'quv rejadagi tanlov fanlari majmuasining umumiy soni 10 tagacha bo'lishi mumkin.

C. Malakaviy amaliyot.

Bakalavrlar tayyorlashda quyidagi malakaviy amaliyotlar o'tkaziladi:

1-bosqichda malakaviy amaliyot – O'quv tanishuv va energetika sohasi bo'yicha amaliy ko'nikmalarni egallashga qaratiladi;

2,3-bosqichlarda malakaviy amaliyot - ishlab chiqarishda (tegishli soha korxonasi, tashkilot va muassasalarida) umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan olingan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlar bilan uyg'unlashtirish, tegishli amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi;

4-bosqichda malakaviy amaliyot - ishlab chiqarishda (tegishli soha korxonasi, tashkilot va muassasalarida) kasbiy ko'nikmalarni yanada mustahkamlash, kasbiy faoliyatga moslashish, bitiruv malakaviy ishni tayyorlash uchun ma'lumot to'plash va tizimlashtirishga qaratiladi;

Ta'lim yo'nalishlarining o'ziga xos xususiyatlariga muvofiq malakaviy amaliyotlarning boshqa turlari ham qo'llanilishi mumkin.

2.3.1. Kvalifikatsiya: Muhandis-elektromexanik.

2.3.2. 60710700 – *Elektr texnikasi, elektr mexanikasi va elektr texnologiyalari (elektr mashinasozlik) ta'lim yo'nalishi* uchun ajratilgan o'quv fanlari, bloklar bo'yicha soatlar va kreditlar.

| O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari | Kunduzgi ta'lim shakli uchun fanlarga ajratilgan soat | Ajratilgan kredit |
|--|---|-------------------|
| Majburiy fanlar | 4980 | 166 |
| Tanlov fanlari | 1650 | 55 |
| Malakaviy amaliyot | 420 | 14 |
| Yakuniy davlat attestatsiyasi | 150 | 5 |

| | | | | | |
|------|----------------|---|------|-----|---------|
| 1.05 | PSM1110 | Fizika 1,2 | 450 | 15 | 12,3 |
| 1.06 | GMU1115 | Qilq. matematika 1,2,3 | 120 | 4 | 1 |
| 1.07 | Q'EYIM1104 | O'zbekistonning yangi tarixi | 120 | 4 | 1 |
| 1.08 | YIATM1104 | Texnik ilmiyotda ahamiyat texnologiyalari | 120 | 4 | 1 |
| 1.09 | MKG11104 | Mulohazalar kompyuter grafiikasi | 120 | 4 | 1 |
| 1.10 | MSI2404 | Neurologiya va psixiatriya | 120 | 4 | 1 |
| 1.11 | SIMI4804 | Sana iqtisodiyoti va menejmenti | 120 | 4 | 1 |
| 1.12 | FAL13604 | Falsafa | 120 | 4 | 1 |
| 1.13 | EKA13504 | Ereologiya | 120 | 4 | 1 |
| 1.14 | XFXI4704 | Hayot faoliyati hay'atligi | 120 | 4 | 1 |
| 1.15 | MEX12304 | Mexanika I | 120 | 4 | 1 |
| 1.16 | NET12409 | Nazariy elektrotexnika | 240 | 8 | 3,4 |
| 1.17 | EEA12409 | Elektr va elektron apparatlar | 240 | 8 | 3,4 |
| 1.18 | EMA12408 | Elektr mexanika asoslari | 240 | 8 | 3,4 |
| 1.19 | EMI3671 | Elektr mashinalari | 300 | 10 | 3,6 |
| 1.20 | EYUAI3610 | Elektr yurish mashinalari | 300 | 10 | 3,6 |
| 1.21 | EMMML14810 | Elektr mashinalarini matematik modellash va loyihalash | 300 | 10 | 3,6 |
| 1.22 | ICHMAEYU114810 | Isitish va qizitish mexanizmlari loyihalash | 300 | 10 | 3,6 |
| 1.23 | YK11105 | Yo'nalishga kirish | 150 | 5 | 1 |
| 1.24 | EMETS14510 | Elektr mashinalarini ekspluatatsiya, ta'mirlash va aytish | 300 | 10 | 3,6 |
| 1.25 | JEN12304 | Isitish elektr mashinalari | 120 | 4 | 1 |
| 1.26 | | Tanlov fanlari | 1650 | 55 | 3,3-4,5 |
| 1.27 | | Tanlov fanlari (1 va 2) | 1650 | 55 | 3,3-4,5 |
| 1.28 | | Jami | 6630 | 221 | |
| 1.29 | MA1814 | Malakaviy amaliyot | 420 | 14 | 4,0,3 |
| 1.30 | DM18205 | Yakuniy davlat attestatsiyasi | 150 | 5 | 5 |
| | | Jami | 7200 | 230 | |

2.3.3. 60710700 – Elektr texnikasi, elektr mexanikasi va elektr texnologiyalari (elektr mashinasozlik) bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha ta'lim dasturining tuzilishi

| T.r. | Fanning malakaviy kodi | O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari | Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda | Kredit miqdori | Semes tri |
|------|------------------------|--|-------------------------------------|----------------|-------------|
| 1.00 | | Majburiy fanlar | 4980 | 166 | |
| 1.01 | O'RT11104 | O'zbek (rus) tili | 120 | 4 | 1 |
| 1.02 | DIN11204 | Dinshunoslik | 120 | 4 | 2 |
| 1.03 | KIM11204 | Kimyo | 120 | 4 | 2 |
| 1.04 | XT11408 | Xorijiy til 1,2 | 240 | 8 | 2,4 |
| 1.05 | FIZ11210 | Fizika 1,2 | 300 | 10 | 1,2 |
| 1.06 | OM11315 | Oliy matematika 1,2,3 | 450 | 15 | 1,2,3 |
| 1.07 | O'EYT11104 | O'zbekistonning eng yangi tarixi | 120 | 4 | 1 |
| 1.08 | TTAT11104 | Texnik tizimlarda axborot texnologiyalari | 120 | 4 | 1 |
| 1.09 | MKG11104 | Muhandislik va kompyuter grafikasi | 120 | 4 | 1 |
| 1.10 | MS12404 | Metrologiya va standartlashtirish | 120 | 4 | 4 |
| 1.11 | SIM14804 | Soha iqtisodiyoti va menejmenti | 120 | 4 | 8 |
| 1.12 | FAL13604 | Falsafa | 120 | 4 | 6 |
| 1.13 | EKA13504 | Ekologiya | 120 | 4 | 5 |
| 1.14 | XFX14704 | Hayot faoliyati havfsizligi | 120 | 4 | 7 |
| 1.15 | MEX12304 | Mexanika 1 | 120 | 4 | 3 |
| 1.16 | NET12409 | Nazariy elektrotexnika | 270 | 9 | 3,4 |
| 1.17 | EEA12408 | Elektr va elektron apparatlar | 240 | 8 | 3,4 |
| 1.18 | EMA12408 | Elektr mexanika asoslari | 240 | 8 | 3,4 |
| 1.19 | EM13611 | Elektr mashinalari | 330 | 11 | 5,6 |
| 1.20 | EYUA13610 | Elektr yuritma asoslari | 300 | 10 | 5,6 |
| 1.21 | EMMML14810 | Elektr mashinalarini matematik modellashtirish va loyihalash | 300 | 10 | 7,8 |
| 1.22 | ICHMAEYU14810 | Ishlab chiqarish mexanizmlarning AEYulari | 300 | 10 | 7,8 |
| 1.23 | YK11105 | Yo'nalishga kirish | 150 | 5 | 1 |
| 1.24 | EMETS14810 | Elektr mashinalarini ekspluatatsiyasi, ta'mirlash va sinash | 300 | 10 | 7,8 |
| 1.25 | IES12304 | Issiqlik elektr stansiyasi | 120 | 4 | 3 |
| 2.00 | | Tanlov fanlari | 1650 | 55 | |
| 2.00 | | Tanlov fanlari (7 ta fan) | 1650 | 55 | 2,3,4,5,7,8 |
| | | Jami | 6630 | 221 | |
| | MA1814 | Malakaviy amaliyot | 420 | 14 | 4, 6, 8 |
| | BMI4805 | Yakuniy davlat attestatsiyasi | 150 | 5 | 8 |
| | | Jami | 570 | 19 | |
| | | HAMMASI | 7200 | 240 | |

Bibliografik ma'lumotlar

UDK 002: 651. 1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

Tayanch so'zlar:

kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat ob'yekti, kasbiy faoliyat sohasi, bakalavriatning asosiy o'quv reja va o'quv dasturlari, profil, o'qib-o'rganish natijalari, o'quv davri, elektr mashinalar va transformatorlar, elektr mashinalar va transformatorlarni loyihalash, boshqarish va avtomatlashtirish, ekspluatasiya qilish va ta'mirlash, elektr va elektron apparatlar, malaka talablari, bakalavriatning o'quv jarayoni, sifatni baholash va nazorati, mustaqil ta'lim, ishlab chiqarish, tashkiliy-boshqaruv faoliyati, malaka amaliyoti, bitiruv malakaviy ishi, davlat attestatsiyasi, o'quv fanlari bloki, oliy ta'lim muassasasi, ta'lim jarayoni, boshqaruv jarayoni, ishlab chiqarish, loyihalash, ilmiy tadqiqot jarayoni.

KELISHILGAN:

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi bazasidagi Oliy ta'limni
rivojlantirish tadqiqotlari markazi

Toshkent davlat transport
universiteti

Diraktor: S.G. Yakubov

Prof. G.Q. Abduraximov



"O'zenergoilumining" A.J.

O'zR TA Energetika muammolari
instituti

Diraktor: S.G. Yakubov

X.M. Mirzayev



Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lim muassasalari
hamda kadrlar iste'molchilari
ISHLAB CHIQUILGAN:

Islom Karimov nomidagi
Toshkent davlat texnika universiteti



Rektor  prof. S.M. Turabdjano

2023 yil « 03 » 07

M.O'.

“O‘zbekgidroenergoqurilish” AJ



Bosh direktori  S.M. Yusupov

2023 yil « 03 » 07

KELISHILGAN:

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy ta'limni
rivojlantirish tadqiqotlari markazi

Toshkent davlat transport
universiteti

Direktor  Sh. Yakubov

Rektor  prof. O.Q. Abduraxmonov

2023 yil « 06 » 07

2023 yil « 06 » 07

“O‘zenergoinjining” AJ

O‘zR FA Energetika muammolari
institutini

Direktor  Z. Abdujabborov

Direktor  X.M. Muratov

2023 yil « 06 » 07

2023 yil « 06 » 07

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
60710700 – Elektr texnikasi, elektr mexanikasi va elektr texnologiyalari (elektr mashinasozlik) ta’lim yo’nalishi bo’yicha malaka talablari va o’quv rejasining ishlab chiquvchilar, turdosh oliy ta’lim muassasalari va asosiy kadrlar iste’molchilari o’rtasida

KELISHUV DALOLATNOMASI

Toshkent sh.

“ 7 ” 07 2023 yil

Biz quyida imzo chekuvchilar – “O‘zbekgidroenergoqurilish” AJ bosh direktori S.M.Yusupov, Toshkent davlat transport universiteti rektori, professor O.Q.Abduraxmonov, Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti rektori, professor S.M.Turabdjano**v** birgalikda ToshDTUda ishlab chiqilgan quyidagi bakalavriat ta’lim yo’nalishining malaka talablari va o’quv rejasi mazmuni bilan tanishib chiqib, kelishuv haqida ushbu dalolatnomani tuzdik:

60710700 – Elektr texnikasi, elektr mexanikasi va elektr texnologiyalari (elektr mashinasozlik) ta’lim yo’nalishi.

Malaka talablari hamda o’quv rejani ishlab chiqilishida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida” PQ-2909-son, 2017 yil 27 iyuldagi “Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ-3151-son, 2018 yil 5 iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi PQ-3775-son, Qarorlari va 2023 yil 15-iyundagi “2023/2024 o’quv yili uchun davlat oliy ta’lim muassasalariga o’qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari to’g’risida”gi F-31-son Farmoyishiga hamda oliy ta’lim sohasini tartibga soluvchi boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlar, shuningdek, xalqaro talablarga asoslangan.

Mazkur malaka talablari va o’quv rejalarining ishlab chiqilishida asosiy kadrlar iste’molchilari tomonidan qo’yilgan talablar ham inobatga olingan.

Ta’lim yo’nalishi bo’yicha malaka talablari o’quv reja va fan dasturlari hamda boshqa hujjatlarni yaratish uchun asos bo’lib hisoblanadi.

Ishlab chiqilgan malaka talablari va o’quv rejani o’rnatilgan tartibda tasdiqlashga tavsiya etish mumkin.

“O‘zbekgidroenergoqurilish” AJ
bosh direktori



Toshkent davlat transport universiteti
rektori, professor



Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat
texnika universiteti rektori, professor



S.M. Yusupov

O.Q. Abduraxmonov

S.M. Turabdjano**v**

**Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universitetida
ishlab chiqilgan 60710700 – Elektr texnikasi, elektr mexanikasi va elektr
texnologiyalari (elektr mashinasozlik) ta'lim yo'nalishi bo'yicha oliy ma'lumotli
bakalavrlar tayyorlashning tayyorgarlik darajasi va zaruriy bilimlar
mazmuniga qo'yiladigan talablar yangilangan malaka talablari va o'quv rejasiga**

TA QRIZ

"Ta'lim to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini ijro etish, ta'lim mazmunini tubdan isloh qilish, tayyorlanayotgan kadrlar sifatining respublikada amalga oshirilayotgan chuqur iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar talablariga, shuningdek ta'lim, fan, texnika va texnologiyalar rivojlanishining ilg'or jahon darajasiga muvofiqligini ta'minlash bevosita malaka talablarining mazmuniga bog'liq.

60710700 – Elektr texnikasi, elektr mexanikasi va elektr texnologiyalari (elektr mashinasozlik) ta'lim yo'nalishining malaka talablari va o'quv rejasi O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida", qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3775-sonli hamda O'zR OTFIVning 2023 yil 9 iyundagi "Oliy ta'limning me'yoriy-uslubiy hujjatlarini ishlab chiqish jarayonini takomillashtirish to'g'risida"gi 259-sonli buyrug'i, oliy ta'lim sohasini tartibga soluvchi boshqa normativ huquqiy hujjatlarga hamda xorij tajribalariga muvofiq ishlab chiqilgan.

Bakalavriat ta'lim yo'nalishi o'quv rejasi kredit-modul tizimi asosida shakllantirilgan va kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablarga muvofiq, talabalar majburiy va tanlov fanlarini o'zlashtirishi, amaliyotlarni o'tishi va natijada kasbiy faoliyatida zarur bilim, ko'nikma va malaka kompetensiyalarini egallashini ta'minlovchi mazmunda ishlab chiqilgan.

60710700 – Elektr texnikasi, elektr mexanikasi va elektr texnologiyalari (elektr mashinasozlik) ta'lim yo'nalishi bo'yicha tuzilgan yangilangan malaka talablari va o'quv rejasi xorij tajribasi asosida uyg'unlashtirilgan, ta'lim oluvchilarda chuqur bilim, mustaqil fikrlash, yuksak kasb-kor malakasi shakllanishini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilgan, bakalavrlarning fanlarni o'zlashtirish jarayonida tajriba, ko'nikmalar hamda tasavvurga ega bo'lish, qo'yilgan talablarni bilishi va ulardan samarali foydalana olish kabilar to'g'ri ko'rsatilgan. Malaka talablari va o'quv rejasida fan va texnika oldida turgan dolzarb muammolarni o'rganish va ularni ijobiy yechimini izlab topishda zamonaviy uslub va texnologiyalarga, seminar mashg'ulotlariga, mustaqil bilim olish hamda olingan ma'lumotlarni tahlil qilishga keng o'rin berilgan.

Malaka talablarini ishlab chiqishda ta'limni demokratlashtirish, insonparvarlashtirish, globallashtirish sharoitida o'ziga xoslikni saqlash va jahon ta'lim makoniga integrallashtirish tamoyillariga amal qilingan. Malaka talablaridagi bloklar bo'yicha fanlar tarkibi, ularning o'zaro nisbatlari bitiruvchilarning tanlagan mutaxassisligi bo'yicha olgan nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llay olish ko'nikmasini kuchaytirish nuqtai nazaridan qayta ko'rib chiqilgan. Fanlar uchun belgilangan vaqt byudjetining nazariy, amaliy, tajriba, mustaqil ishlar uchun taqsimoti bitiruvchining nazariy bilimlarini mustahkamlash va ularni amaliyotda muvaffaqiyat bilan qo'llash ko'nikmasini shakllantirishga qaratilgan.

Malaka talablari va o'quv rejasini ishlab chiqishda turdosh oliy ta'lim muassasalaining talab va takliflari inobatga olingan.

Xulosa qilib aytganda, 60710700 – Elektr texnikasi, elektr mexanikasi va elektr texnologiyalari (elektr mashinasozlik) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlash uchun tuzilgan yangilangan malaka talablari va o'quv rejasi oliy ta'lim o'quv jarayonini jahon andozalari darajasiga yetkazishga yo'naltirilgan bo'lib, har tomonlama yetuk mutaxassislar tayyorlashga oid masalalarni o'z ichiga olgan va sifatli tuzilgan, O'zbekiston Respublikasi davlat standartlash tizimi qoidalari talablarini qoniqtiradi hamda uni tasdiqlashni taklif qilaman.

**Toshkent davlat transport
universiteti rektori, professor**



O.Q. Abduraxmonov

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universitetida ishlab chiqilgan 60710700 – Elektr texnikasi, elektr mexanikasi va elektr texnologiyalari (elektr mashinasozlik) ta'lim yo'nalishi bo'yicha oliy ma'lumotli bakalavrlar tayyorlashning tayyorgarlik darajasi va zaruriy bilimlar mazmuniga qo'yiladigan talablar yangilangan malaka talablari va o'quv rejasiga

TAQRIZ

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universitetida 60710700 – Elektr texnikasi, elektr mexanikasi va elektr texnologiyalari (elektr mashinasozlik) ta'lim yo'nalishi malaka talablarini ishlab chiqilishida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Devonining 2018 yil 3 apreldagi 5002-sonli topshirig'i va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 5 iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3775-sonli qarori hamda 2019 yil 22 avgustdagi PQ-4422 "Iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohaning energiya samaradorligini oshirish, energiya tejevchi texnologiyalarni joriy etish va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirishning tezkor chora-tadbirlari to'g'risida", 2020 yil 10 iyuldagi PQ-4779 "Iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirish va mavjud resurslarni jalb etish orqali iqtisodiyot tarmoqlarining yoqilg'i-energetika mahsulotlariga qaramligini kamaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari bilan tasdiqlangan tamoyillarga amal qilingan.

60710700 – Elektr texnikasi, elektr mexanikasi va elektr texnologiyalari (elektr mashinasozlik) ta'lim yo'nalishi bo'yicha tuzilgan yangilangan malaka talablari va o'quv rejasida xorij tajribasi asosida uyg'unlashtirilgan, ta'lim oluvchilarda chuqur bilim, mustaqil fikrlash, yuksak kasb-kor malakasi shakllanishini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilgan, bakalavrlarning fanlarni o'zlashtirish jarayonida tajriba, ko'nikmalar hamda tasavvurga ega bo'lish, qo'yilgan talablarni bilishi va ulardan samarali foydalana olish kabilar to'g'ri ko'rsatilgan. Malaka talablari va o'quv rejasida fan oldida turgan dolzarb muammolarni o'rganish va ularni ijobiy yechimini izlab topishda zamonaviy uslub va texnologiyalarga, seminar mashg'ulotlariga, mustaqil bilim olish hamda olingan ma'lumotlarni tahlil qilishga keng o'rin berilgan.

Malaka talablarini ishlab chiqishda talabaning kelgusida faoliyat olib boradigan ob'yektlari misolida fan va texnikaning ilg'or yutuqlaridan foydalangan holda jahon ta'lim makoniga integrallashtirish tamoyillariga amal qilingan. Malaka talablaridagi bloklar bo'yicha fanlar tarkibi, ularning o'zaro nisbatlari bitiruvchilarning tanlagan mutaxassisligi bo'yicha olgan nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llay olish ko'nikmasini kuchaytirish nuqtai nazaridan qayta ko'rib

chiqilgan. Fanlarni shakllantirishda ularning mazmuni jihatidan izchilligi ta'minlangan bo'lib, bugungi kun talabidan kelib chiqib yangi fanlar kiritilgan.

Malaka talablari va o'quv rejasini ishlab chiqishda asosiy kadr iste'molchilari bo'lgan korxonalar va tashkilotlarning talab hamda takliflari inobatga olingan.

Xulosa qilib aytganda, 60710700 – Elektr texnikasi, elektr mexanikasi va elektr texnologiyalari (elektr mashinasozlik) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlash uchun tuzilgan yangilangan malaka talablari va o'quv rejasi oliy ta'lim o'quv jarayonini jahon andozalari darajasiga yetkazishga yo'naltirilgan bo'lib, har tomonlama yetuk mutaxassislar tayyorlashga oid masalalarni o'z ichiga olgan va sifatli tuzilgan, O'zbekiston Respublikasi davlat standartlash tizimi qoidalari talablarini qoniqtiradi hamda uni tasdiqlashni taklif qilaman.

**O'zR FA Energetika muammolari
instituti direktori, professor**



X.M.Muratov